| | O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari 895 Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich |
| | Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari 898 Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi |
| | Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish 901 Ortiqova Zulfiya Nurmuhammedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi |
| | Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari 905 Rustemov Muxamed Biysenbayevich |
| | The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture 908 Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna |



| | |
|--|------|
| Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida | 912 |
| <i>Salixova Muhayyo Shakirovna</i> | |
| Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari | 915 |
| <i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i> | |
| Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi..... | 920 |
| <i>U. M. Utbasarova</i> | |
| Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha | 925 |
| <i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i> | |
| Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский..... | 928 |
| <i>Алибекова Лайло Рахмановна</i> | |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar | 931 |
| <i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i> | |
| Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs..... | 935 |
| <i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i> | |
| Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education..... | 938 |
| <i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i> | |
| Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati..... | 942 |
| <i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i> | |
| Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari | 949 |
| <i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i> | |
| Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri | 952 |
| <i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i> | |
| Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана .. | 956 |
| <i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i> | |
| Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati | 961 |
| <i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i> | |
| Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners | 964 |
| <i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i> | |
| Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar | 968 |
| <i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i> | |
| O'quvchilarning umumdaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari..... | 972 |
| <i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i> | |
| Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili | 975 |
| <i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i> | |
| Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish..... | 980 |
| <i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinovna</i> | |
| Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish | 983 |
| <i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i> | |
| Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari | 986 |
| <i>Abdushukurova Mushtariy</i> | |
| Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari | 991 |
| <i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i> | |
| Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts | 997 |
| <i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i> | |
| Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati..... | 1000 |
| <i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i> | |
| Hisor ekspeditsiyasi tarixi | 1004 |
| <i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i> | |
| Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari..... | 1007 |
| <i>Boqiyev Sarvar Tangirqul o'g'li</i> | |
| Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati | 1011 |
| <i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i> | |

| | | |
|-------------------------------|--|------|
| MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS | The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process..... | 1014 |
| | Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna | |
| | The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English..... | 1019 |
| | Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi | |
| | Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati..... | 1025 |
| | G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omaxon Rahmonberdi qizi | |
| | Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari..... | 1028 |
| | Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi | |
| | Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari..... | 1031 |
| | Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi | |
| | Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish..... | 1034 |
| | Iminova Z. B. | |
| | Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati..... | 1038 |
| | Inayatova Nargisa Nishonboyevna | |
| | O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish..... | 1044 |
| | Kalmuratovna Venera Sultanova | |
| | Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari..... | 1049 |
| | Kamola Abdullayeva | |
| | O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari..... | 1052 |
| | Karimov Orif Obloqul o'g'li | |
| | Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati..... | 1055 |
| | Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna | |
| | Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers..... | 1060 |
| | Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li | |
| | Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri..... | 1063 |
| | Makulov Shuxratjon Zokirovich | |
| | Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar..... | 1067 |
| | Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna | |
| | Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish..... | 1072 |
| | Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna | |
| | Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi..... | 1075 |
| | Mansurova Umida Mansur qizi | |
| | Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari..... | 1081 |
| | Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi | |
| | Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati..... | 1084 |
| | Murodov Nozimjon Olimjonovich | |
| | Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari..... | 1088 |
| | Nafasova Jamila Turg'un qizi | |
| | Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish..... | 1093 |
| | Najmiddinova Gulnoza Odilovna | |
| | Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi..... | 1097 |
| | Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi | |
| | Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli..... | 1101 |
| | O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li | |
| | Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari..... | 1104 |
| | Orifjonova Nazokat Maribjon qizi | |
| | Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari..... | 1108 |
| | Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi | |
| | Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari..... | 1112 |
| | Ostanov Askarjon Nuriddinovich | |



| | |
|---|------|
| “Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari | 1117 |
| <i>Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna</i> | |
| Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari | 1121 |
| <i>O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova</i> | |
| Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari .. | 1126 |
| <i>Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna</i> | |
| Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati . | 1131 |
| <i>Rahmatova Barnogul Karimjonovna</i> | |
| Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili... | 1138 |
| <i>Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi</i> | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi | 1143 |
| <i>Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi</i> | |
| Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari..... | 1146 |
| <i>Roziqova Malika Olimovna</i> | |
| Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish | 1149 |
| <i>Sattorov Boburbek Zokirovich</i> | |
| Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati .. | 1153 |
| <i>Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova</i> | |
| Ta’lim tizimini moliyalashtirish | 1156 |
| <i>T. Seydemetov</i> | |
| Integrating Sports Terminology Into English Teaching..... | 1161 |
| <i>Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna</i> | |
| Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish..... | 1165 |
| <i>Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li</i> | |
| The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence | 1173 |
| <i>Utambetova Arzayim</i> | |
| Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi | 1176 |
| <i>Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li</i> | |
| Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari | 1180 |
| <i>Xuramova Farangiz Uchqun qizi</i> | |
| Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati | 1185 |
| <i>Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna</i> | |
| Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis | 1189 |
| <i>Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova</i> | |
| Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi | 1195 |
| <i>Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li</i> | |
| Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях..... | 1200 |
| <i>Пак Светлана Викторовна</i> | |
| Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2 | 1204 |
| <i>Сагиндилов Алишер Алеутдинович</i> | |
| Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе | 1208 |
| <i>Ширбачеева Гульчехра Шакировна</i> | |
| Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся | 1211 |
| <i>Яхшиева Мехринигор Шавкатовна</i> | |
| Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri | 1216 |
| <i>Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich</i> | |
| Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish | 1219 |
| <i>Bannayev Qosimjon Qodirjonovich</i> | |

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYAVIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna

Angren universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida
katta o'qituvchisi

Xolboyeva Dildora Azizovna

Angren universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar o'quvchi shaxsining ma'naviy, axloqiy va estetik kamolotini shakllantirishda muhim omil sifatida baholanadi. Maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida milliy g'oya va an'analarni o'quv-tarbiyaviy jarayonga singdirish yo'llari, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, milliy bayramlar va o'yinlar orqali bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat va mehnatsevarlik kabi fazilatlarini shakllantirish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'qituvchining milliy qadriyatlar asosidagi pedagogik yondashuvi, dars va sinfdan tashqari faoliyatda tarbiyaviy maqsadlarga erishish strategiyalari hamda zamonaviy metodlar bilan milliy meros uyg'unligini ta'minlash masalalari tahlil etiladi. Tadqiqotda ta'lim jarayonida xalq an'analari va madaniy merosning o'rni, milliy o'zlikni saqlashning ahamiyati hamda o'quvchilar ongida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishning metodik yo'nalishlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, milliy qadriyatlar, tarbiyaviy faoliyat, pedagogik yondashuv, xalq og'zaki ijodi, ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik, milliy meros, o'quvchi shaxsini shakllantirish.

Abstract: This article analyzes the pedagogical foundations of organizing educational activities based on national values in the process of primary education. National values are considered an essential factor in shaping the spiritual, moral, and aesthetic development of the student's personality. The article examines ways of integrating national ideas and traditions into the educational process of primary school, as well as methods for fostering qualities such as patriotism, humanism, kindness, and diligence in children through folk oral creativity, customs, national holidays, and games. The study also explores the teacher's pedagogical approach grounded in national values, strategies for achieving educational goals during lessons and extracurricular activities, and issues related to ensuring harmony between modern teaching methods and national heritage. The importance of folk traditions, cultural heritage, and the preservation of national identity in education is highlighted, along with methodological guidelines for nurturing students' sense of national pride and self-respect.

Key words: primary education, national values, educational activity, pedagogical approach, folk oral creativity, spiritual education, moral values, patriotism, national heritage, student personality formation.

Аннотация: В статье анализируются педагогические основы организации воспитательной деятельности на основе национальных ценностей в процессе начального образования. Национальные ценности рассматриваются как важный фактор формирования духовного, нравственного и эстетического развития личности учащегося. В работе рассматриваются пути интеграции национальной идеи и традиций в учебно-воспитательный процесс начальной школы, а также методы формирования у детей качеств патриотизма, гуманизма, доброжелательности и трудолюбия на основе народного устного творчества, обычаев, национальных праздников и игр. Кроме того, анализируется педагогический подход учителя, основанный на национальных ценностях, стратегии достижения воспитательных целей на уроках и во внеурочной деятельности, а также вопросы гармонизации современных методик с национальным наследием. В исследовании освещается значение народных традиций, культурного наследия и сохранения национальной самобытности в образовании, а также методические направления воспитания у учащихся чувства национальной гордости и самоуважения.

Ключевые слова: начальное образование, национальные ценности, воспитательная деятельность, педагогический подход, народное устное творчество, духовное воспитание, нравственные ценности, патриотизм, национальное наследие, формирование личности учащегося.



KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongida o'z xalqining madaniy merosi, tarixiy ildizlari va ma'naviy boyliklariga hurmat tuyg'usini shakllantirishdan iboratdir. Boshlang'ich ta'lim bosqichi esa aynan inson shaxsining ma'naviy poydevori shakllanadigan davr bo'lib, bu jarayonda o'qituvchining pedagogik yondashuvi hamda milliy qadriyatlarga tayanish darajasi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun maktab nafaqat bilim manbai, balki hayotiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va madaniy an'analarni o'rganish maydonidir. Shu boisdan milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat ularning shaxs sifatida shakllanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar o'zida xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, ma'naviy qadriyatlari, o'ziga xos madaniyati va e'tiqodini mujassam etadi. Ular yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglik, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni o'quv va tarbiyaviy faoliyat bilan uyg'unlashtirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Har bir dars jarayoni, sinfdan tashqari faoliyat, tadbir va o'yin orqali bolalarda milliy g'urur, ona tiliga, tarix va madaniyatga hurmat, o'z xalqiga sadoqat tuyg'usi shakllantiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanib barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasi alohida ta'kidlanadi. Bu esa o'qituvchilardan milliy tarbiyani zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtira oladigan, didaktik va metodik jihatdan yetuk yondashuvni talab etadi. Boshlang'ich sinfda milliy qadriyatlarni o'qitish va tarbiyaviy faoliyatda qo'llash nafaqat o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, balki ularni o'z milliy ildizlariga sodiq, ma'naviy barkamol, zamonaviy fikrlaydigan shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni singdirish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni o'quv-tarbiyaviy faoliyatga singdirish bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda muhim pedagogik yo'nalish sifatida baholanadi. Hasanboyeva va Qodirova tomonidan yaratilgan "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" asarida milliy qadriyatlarning dars mazmuniga uyg'un kiritilishi o'quvchining ma'naviy-axloqiy kamoloti uchun zamin yaratishi ta'kidlanadi. Yo'ldosheva "Ma'naviy tarbiya asoslari" asarida ma'naviy tarbiyaning manbalari sifatida xalq ijodi, urf-odatlar va tarixiy merosning ahamiyatini ochib beradi. Omonovning "Tarbiya nazariyasi va metodikasi" kitobi esa milliy tarbiya jarayonini barkamol shaxsni shakllantirishning ajralmas qismi sifatida talqin qiladi.

Milliy qadriyatlarning mazmuniy asoslarini dars jarayonida qo'llash bo'yicha Xaydarovanning "Maqol va matallarning tuzilishi" haqidagi tadqiqoti xalq og'zaki ijodi orqali o'quvchilarda nutq madaniyati va ma'naviy estetik didni rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Rahmonovning boshlang'ich sinflarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish bo'yicha olib borgan ilmiy ishlari milliy qadriyatlarning shaxsning ruhiy-axloqiy rivojlanishidagi o'rnini amaliy misollar asosida yoritadi. Xolmatovanning ilmiy izlanishlari esa milliy qadriyatlarning zamonaviy ta'limdagi o'rnini, xususan globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlash mexanizmlari bilan bog'liq jihatlarni o'rganadi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish borasida Dilnoza va hamkorlarining modular o'qitish tizimi haqidagi tadqiqoti pedagogik jarayonni moslashuvchan tashkil etish, o'quvchi faolligini oshirish imkonini ko'rsatadi. Akhmedovning sun'iy intellekt va virtual ta'lim muhiti bo'yicha olib borgan izlanishlari boshlang'ich ta'limga axborot texnologiyalarini joriy etishning samaradorligini yoritadi. EFL bo'yicha olib borilgan amaliy tadqiqotlar (Ibodatxon, Go'zalxon, Guzalkhon) esa interfaol o'yinlar, guruh ishlari va innovatsion metodlarning o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rnini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotlar milliy qadriyatlarni zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashtirilganda tarbiyaviy jarayonning samaradorligi yanada oshishini tasdiqlaydi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda qo'llaniladigan metodlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish bosqichlari va o'quv jarayonining maqsadlariga mos bo'lishi zarur. Pedagogik jarayonda milliy qadriyatlarni singdirishning asosiy metodlari orasida kuzatish, suhbat, rolli o'yin, ijodiy topshiriq, ertak terapiyasi, integratsiyalashgan darslar, interfaol usullar hamda xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish samarali natija beradi. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilarda nafaqat bilim, balki axloqiy-ruhiy fazilatlar ham shakllanadi.

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>

1-jadval: Boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlarni singdirishning asosiy yo'nalishlari

| Yo'nalish | Mazmuni | Tarbiyaviy natijasi |
|---|--|---|
| Xalq og'zaki ijodi asosida darslar | Ertak, maqol, topishmoq, xalq qo'shiqlaridan foydalanish | Ma'naviy-estetik didni rivojlantirish, o'z xalqiga hurmat tuyg'usini shakllantirish |
| Milliy urf-odatlar va an'analarni o'rganish | Navro'z, Mehrjon, to'y marosimlari, hunarmandchilik namunalarini o'quv jarayoniga kiritish | Milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash |
| Milliy o'yinlar va rolli faoliyat | "Ko'pkari", "Oq terakmi, ko'k terak" kabi xalq o'yinlari orqali interfaol mashg'ulotlar | Jamoaviylik, birdamlik va o'zaro hurmat fazilatlarini shakllantirish |
| Madaniy meros bilan tanishtirish | Tarixiy obidalar, allomalar hayoti va asarlari bilan tanishtirish | Tarixiy ong, ma'naviy o'zlik va qadriyatlarni anglashni chuqurlashtirish |
| Oilaviy qadriyatlar targ'iboti | Ota-ona, buvi-bobolar tajribasi asosida suhbatlar, tadbirlar | Mehr-oqibat, mas'uliyat, naslga hurmat tuyg'ularini kuchaytirish |

Masalan, xalq og'zaki ijodi asosidagi darslar o'quvchilarning milliy o'zlikni anglash jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Ertak, maqol, topishmoq, matal va xalq qo'shiqlari orqali ularning hayotiy tajribasi boyiydi, ijobiy axloqiy xulq-atvor shakllanadi. O'yin metodlari yordamida esa o'quvchilar milliy urf-odatlarni o'zlashtiradi, jamoaviy faoliyatda o'z o'rnini topadi. Shu bilan birga, milliy bayramlar, madaniy tadbirlar, tarixiy shaxslar hayotiga oid mavzular asosida o'tkaziladigan ijodiy mashg'ulotlar o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini mustahkamlaydi.

Interfaol metodlardan "Aqliy hujum", "Klaster", "INSERT", "Venn diagrammasi", "Rol o'ynash", "Debat" kabi usullar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga, o'z fikrini asoslab ifodalashga o'rgatadi. Shu bilan birga, o'qituvchining shaxsiy namunalari, milliy qadriyatlarni o'z hayotida qo'llay olishi, o'quvchilarga ijobiy namunaviy ta'siri ham tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

Metodik jihatdan milliy qadriyatlarni tarbiyaviy faoliyatga singdirish integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi. Ya'ni, o'quv fani mazmuniga mos holda milliy qadriyatlar singdirilib, ular tabiiy fan, ona tili, mehnat, san'at, musiqa darslarida ham uyg'un ravishda o'z aksini topadi. Shuningdek, tarbiyaviy soatlar, sinfdan tashqari tadbirlar, ota-onalar bilan hamkorlikdagi loyihalar orqali o'quvchilarda milliy iftixor, an'anaviy qadriyatlarga hurmat tuyg'usi mustahkamlanadi. Shu tarzda, milliy qadriyatlar asosidagi pedagogik metodlar o'quvchi shaxsining intellektual va ma'naviy kamolotini bir butun holda rivojlantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish natijalari o'quvchilarning ma'naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlarga tayanilgan pedagogik jarayon o'quvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini shakllantiradi. Dars jarayonlarida milliy urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi va madaniy merosdan foydalanish orqali bolalarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy ong va o'z xalqiga sadoqat tuyg'usi kuchayadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning axloqiy qarashlari, nutq madaniyati, ijtimoiy faolligi va ijobiy kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tajriba-sinov mashg'ulotlarida aniqlanishicha, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyatda qatnashgan o'quvchilar o'zaro hurmat, jamoada ishlash, o'z fikrini mustaqil ifodalash, ajdodlar merosiga hurmat bilan qarash kabi ko'nikmalarni tezroq egallaydilar. Ular milliy bayramlarda faol ishtirok etadi, o'z xalqining tarixiy ramzlarini, madaniy belgilarini anglaydi, oilaviy qadriyatlarga e'tiborli bo'ladi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, o'qituvchilarning milliy qadriyatlar asosidagi metodlardan muntazam foydalanishi ularning pedagogik mahoratini boyitadi. O'quvchilar bilan olib borilgan suhbatlar va kuzatuvlar natijalariga ko'ra, milliy qadriyatlar asosidagi tarbiyaviy yondashuv bolalarda ijobiy axloqiy holatni mustahkamlash, o'z millatiga sadoqat va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tizim orqali o'quvchilarda shaxsiy mas'uliyat, o'zini baholash madaniyati, muloqotda xushmuomalalik, o'z fikrini ifodalashda aniqlik va adolatni qadrlash kabi sifatlar rivojlanadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlarni tarbiyaviy faoliyatga singdirish nafaqat o'quvchilarning individual rivojlanishiga, balki ularning ijtimoiy-madaniy integratsiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida bolalarda milliy g'urur, o'z xalqiga sadoqat, insoniy qadriyatlarga hurmat kabi barqaror ma'naviy fazilatlar shakllanadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik model boshlang'ich ta'limda shaxsni har tomonlama rivojlantirishning samarali vositasi sifatida o'zini oqlaydi.



Boshlang'ich ta'lim tizimida milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish masalasi zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Chunki globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot oqimining kuchayishi jarayonida yosh avlodning milliy o'zligini saqlash, ma'naviy poydevorini mustahkamlash masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatida milliy qadriyatlariga tayanish, ularni dars jarayoni va tashqi faoliyat bilan uyg'unlashtirish dolzarb pedagogik ehtiyojga aylandi.

2-jadval: Milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari

| Pedagogik shart | Amalga oshirish shakli | Kutilayotgan natija |
|---|--|---|
| O'qituvchining milliy ong va ma'naviyat darajasini oshirish | Malaka oshirish kurslari, milliy merosga oid seminarlar | Pedagogda milliy qadriyatlarga tayanib ishlash kompetensiyasi shakllanadi |
| O'quv dasturlarini milliy ruh bilan boyitish | Dars mazmuniga xalq ijodi, tarix, madaniyat elementlarini kiritish | O'quvchilarda milliy o'zlik va g'urur tuyg'usi kuchayadi |
| Mahalla va ota-onalar bilan hamkorlik | Qo'shma tadbirlar, xalqona festivallar, loyihaviy faoliyatlar | Ta'lim-tarbiya jarayonining ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi ta'minlanadi |
| Raqamli vositalar orqali milliy qadriyatlarni targ'ib etish | Multimediali loyihalar, milliy o'yinlarning onlayn versiyalari | Zamonaviy texnologiyalar yordamida milliy madaniyatni o'zlashtirish |
| O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan tarbiya modeli | Individual yondashuv, ijodiy topshiriqlar, refleksiya mashqlari | Bolada shaxsiy mas'uliyat, milliy ong va ijobiy fazilatlar rivojlanadi |

Milliy qadriyatlarni o'qitish jarayoniga singdirishda asosiy muammo ularni faqatgina ma'lumot sifatida emas, balki o'quvchilarning his-tuyg'usi, hayotiy tajribasi va shaxsiy qiziqishlari bilan uyg'unlashtirish zaruratidir. Shu ma'noda, milliy qadriyatlar asosidagi tarbiyaviy faoliyat tizimli, uzviy va interfaol yondashuvni talab etadi. O'qituvchi o'z darslarida milliy an'analar, xalq donishmandligi, qadimiy urf-odatlarini zamonaviy ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirganida, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni qadrlash, vatanparvarlik kabi tuyg'ular tabiiy shakllanadi.

Muhokama jarayonida shuningdek, ota-onalar va mahalla hamkorligi ham muhim o'rin tutadi. Ota-onalar ishtirokida o'tkaziladigan milliy an'anaviy tadbirlar, hunarmandchilik, xalq o'yinlari va ertak kechalari o'quvchilar ongida milliy qadriyatlarining hayotiy ahamiyatini chuqur singdiradi. Shu bilan birga, o'qituvchining o'zi milliy qadriyatlarni chuqur anglagan, o'z hayotida ularga amal qiladigan shaxs bo'lishi lozim. Chunki o'quvchilar uchun o'qituvchi eng yaqin ijtimoiy modeldir.

Milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning muvaffaqiyati o'qituvchi malakasiga, pedagogik innovatsiyalarni qo'llay bilish qobiliyatiga, shuningdek, dars mazmunining milliy ruh bilan boyitilishiga bog'liq. Bu yo'nalishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, loyiha metodlari, raqamli ta'lim vositalari ham katta yordam beradi. Xalq urf-odatlarini virtual muhitda tasvirlash, milliy o'yinlarni interfaol formatda tashkil etish, tarixiy shaxslar hayotiga bag'ishlangan multimediali loyihalar o'quvchilarning milliy ongini shakllantirishda zamonaviy yondashuv sifatida samarali natija beradi.

Umuman olganda, milliy qadriyatlar asosidagi tarbiyaviy faoliyatni boshlang'ich ta'limga chuqur singdirish o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularda milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy faollik va madaniy identifikatsiyani mustahkamlashda hal qiluvchi omil sifatida qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish – yosh avlodni milliy o'zlik, vatanparvarlik va insoniylik ruhida tarbiyalashning muhim omilidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy kamolotini shakllantirishda markaziy o'rin tutadi. Ular orqali bola o'z xalqining tarixi, madaniyati, urf-odatlari va an'analarini chuqur anglaydi, shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rnini topishga intiladi. Shu bois, milliy qadriyatlarni ta'lim jarayonining barcha bosqichlariga singdirish – nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiy-ma'naviy zaruratdir.

O'qituvchi bu jarayonning asosiy tashabbuskori bo'lib, u milliy qadriyatlarining mazmunini dars mazmuni bilan uyg'unlashtirishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos pedagogik metodlarni tanlashi, xalq og'zaki ijodi va madaniy meros elementlaridan samarali foydalanishi lozim. Shu tarzda, o'quvchi ongida milliy o'zlikni anglash, o'z xalqiga sadoqat, mehnatsevarlik, insonparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ulari shakllanadi.

Milliy qadriyatlarni o'qitishning samaradorligi, avvalo, ularning zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashgan holda joriy etilishiga bog'liqdir. Bunda raqamli ta'lim resurslaridan, multimedia loyihalaridan, milliy o'yinlar va madaniy tadbirlardan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy iftixor va madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolish tuyg'usi mustahkamlanadi. Shu bilan birga, tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishda ota-onalar, mahalla va ta'lim muassasasi o'rtasidagi uzviy hamkorlik muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlar asosidagi tarbiyaviy faoliyatni tizimli yo'lga qo'yish o'quvchilarda milliy ong, ijtimoiy faollik, madaniy va ma'naviy yetuklikni rivojlantiruvchi kuchli vosita hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi pedagogik yondashuvlar kelajakda milliy qadriyatlarni asrab-avaylaydigan, ularni amaliy hayotda qo'llay oladigan barkamol avlodni tarbiyalashning ishonchli kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent, 1997.
3. Dilnoza M., Maftuna S., Guzalkhon K., Makhliyo S., & Maftuna K. (2019). Modular training system as a factor of improving educational process. *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*, 9(1), 3160–3166.
4. Xaydarova G. Z. (2024). Maqol va matallarning tuzilishi. *Tamaddun nuri jurnali*, 5(56), 450–453.
5. Ibodatxon O., & Go'zalxon X. (2024). Group work strategies in EFL classes. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(2), 37–40.
6. Guzalkhon K. (2023). Translation of linguistic means of caressing in English into Uzbek. *Proceedings of International Educators Conference*, 2(3), 51–53.
7. Guzalkhon K. (2023). The usage of modern technologies in EFL vocabulary classes. *Proceedings of International Educators Conference*, 2(3), 51–53.
8. Hasanboyeva O., Qodirova F. *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
9. Yo'ldosheva N. *Ma'naviy tarbiya asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
10. Rahmonov B. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish metodikasi*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
11. Akhmedov B. A. (2025). Implementing artificial intelligence and virtual learning environments in elementary schools in Uzbekistan. *Procedia Environmental Science, Engineering and Management*, 12(1), 63–70.
12. Karimova V. *Pedagogik psixologiya*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
13. Omonov H. *Tarbiya nazariyasi va metodikasi*. – Toshkent: Fan, 2018.
14. Xolmatova M. *Milliy qadriyatlarning zamonaviy ta'limdagi o'rni*. – Samarqand: Ziyo, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.